

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03./2025.27.12.T.14.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

OMONTURDIYEV ORTIQ ESHBOYEVICH

**MAHALLIY XOMASHYOLAR ASOSIDA NOTO‘QIMA MATERIALLAR
ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA
IQTISODIY SAMARADORLIGINI ANIQLASH (XISORI MAYIN JUN
KORXONASI MISOLIDA)**

05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Omonturdiyev Ortiq Eshboyevich

Mahalliy xomashyolar asosida noto'qima materiallar ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini aniqlash (Xisori mayin jun korxonasi misolida).....3

Омонтурдиев Ортик Эшбоевич

Усовершенствование технологии производства нетканых материалов на основе местного сырья и определение ее экономической эффективности (на примере предприятия по производству тонкой шерсти в Хисари)25

Omonturdiev Ortik Eshboevich

The improvement of the technology of the production of net fabric materials and the basis of local production and the definition of economic efficiency (as a primer for the production of fine wool in Hisari)49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....53

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03./2025.27.12.T.14.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

OMONTURDIYEV ORTIQ ESHBOYEVICH

**MAHALLIY XOMASHYOLAR ASOSIDA NOTO‘QIMA MATERIALLAR
ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA
IQTISODIY SAMARADORLIGINI ANIQLASH (XISORI MAYIN JUN
KORXONASI MISOLIDA)**

05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/T6180 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalar universitetida bajarilgan
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalar universitetida ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://tdma.uz/>) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyouz.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ermatov Shavkat Qulmatovich
texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponenstlar:

Avazov Komil Raxmatovich
texnika fanlari doktori, professor

Toshbekov Odil Abdullayevich
texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot

Totali ekinlar ilmiy tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalar universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.T.14.02 raqamli kengashning 2026-yil 09-oktabr soat 16.00 da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 190100, Termiz shahri, Islom Karimov ko'chasi 288a-uy. Tel.: (99876) 221-87-20, e-mail: kengash@tdma.uz)

Dissertatsiya bilan Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (10 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 190100, Termiz shahri, "Islom Karimov" ko'chasi 288a-uy. Tel.: (99876) 221-87-20; e-mail: info@tdma.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 23.09 da taqatildi
(2026 yil 16.06 da) 10 - raqamli reyestr bayonnomasi)



M.K.Urtaev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

R.E.Qarshiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

R.K.Jamolov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon miqyosida tabiiy tolalarni chuqur qayta ishlash, mahalliy xomashyodan yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish hamda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish to‘qimachilik sanoatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, Avstraliya, AQSH, Xitoy, Argentina, Rossiya, Qozog‘iston hamda Yevropa davlatlarida jun xomashyosini qayta ishlash texnologiyalarini takomillashtirish, tolani iflos aralashmalardan samarali tozalash, uning tabiiy fizik-mexanik xossalarini saqlagan holda sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahon amaliyotida junni qayta ishlash jarayonlarini avtomatlashtirish, energiya va resurs tejamkor texnologiyalarni yaratish, mavjud texnologik uskunalarni modernizatsiya qilish hamda ekologik xavfsiz ishlab chiqarish tizimlarini joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, jun asosida texnik va maishiy maqsadlarda foydalaniladigan titilgan tolali materiallar ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, ularning fizik-mexanik, fizik-kimyoviy va ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilashga qaratilgan ilmiy ishlanmalar muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda mahalliy xomashyo resurslaridan samarali foydalanish, import o‘rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda to‘qimachilik sanoatini modernizatsiya qilish bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mahalliy dag‘al junni chuqur qayta ishlash asosida raqobatbardosh titilgan tolali materiallar ishlab chiqarish, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish va energiya tejamkor uskunalarni yaratish muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida sanoat tarmoqlarini jadal rivojlantirish, jumladan, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilangan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi “Qorako‘lchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4984 sonli qarorlarida “junni qayta ishlash, go‘sht-sut mahsulotlari, yarim tayyor va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish korxonalarini tashkil qilish, tarmoqda rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini va innovatsion texnologiyalarni joriy etish, suv bilan ta‘minlanmagan yaylovlarda yangi suv inshootlarini qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish”¹ bu ushbu sohani rivojlantirishga qaratilgan muhim vazifalar belgilab berilgan.

Mazkur dissertatsiya ishida mahalliy dag‘al jun tolasini mexanik va kimyoviy usullarda qayta ishlash jarayonlarini takomillashtirish, tolani iflos aralashmalardan samarali tozalash, uning tabiiy xossalarini saqlagan holda yuqori fizik-kimyoviy va fizik-mexanik ko‘rsatkichlarga ega titilgan tolali materiallar olish texnologiyasini ishlab chiqish hamda takomillashtirilgan tozalash uskunasi konstruktiv va

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi “Qorako‘lchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4984 sonli qarori

texnologik parametrlarini asoslashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar bajarilgan bo'lib, ularning natijalari sohadagi mavjud ilmiy-amaliy muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalar rivojlanishining II «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jun tolasini qayta ishlash texnika va texnologiyasini rivojlantirish, jun tolasini tabiiy xususiyatlarini saqlagan xolda sifatli mahsulotlarni olish bo'yicha ilmiy va amaliy yo'nalishlarda V.M.Koldaev, N.I.Shleudyakov, N.V.Rogachev, S.I.Shvesov, N.M.Motsepuro, Ni.Dongping, Lin Shuo, Guan Jinmin, Yuesheng Zhao, G.A.Sokolov, Ye.I.Bitus, A.F.Plexanov kabi dunyoning yetakchi olimlari o'z hissalarini qo'shgan.

Respublikamizda jun tolasini dastlabki ishlash texnologiyasi va uskunolari konstruksiyasini yanada takomillashtirish bo'yicha fundamental va amaliy izlanishlarda X.Ahmedxo'jaev, M.Qulmetov, S.A.Yusupov, J.A.Qayumov, Q.J.Jumaniyozov, I.A.Nabieva, S.M.Elmonov, S.A.Yusupov, M.Z.Abdukarimova, M.Sh.Xasanova, Sh.Sh.Xakimov, M.K.Urozov, O.A.Toshbekov, F.Ismoilov kabi olimlar tadqiqotlar olib borgan.

Mahalliy dag'al jun tolasini o'simliklar qoldiqlaridan tozalash va fizik kimyoviy usulda qayta ishlash, tabiiy xususiyatlarini saqlagan holda texnik jihatdan sifatli tola olish va undan yangi turdagi mahsulot olish bo'yicha tadqiqotlar yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasining 2021 yil 14 iyuldagi 02-RA 1-9900 sonli qarorining 148-bandiga asosan Surxondaryo viloyatida "Chorvachilikda yetishtiriladigan dag'al junlarni kimyoviy va mexanik qayta ishlash orqali to'qimachilik sanoati uchun sifatli mayin ip ishlab chiqarish" (2021-2022) mavzusidagi startap-innovatsion loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi: Mahalliy dag'al jun tolasini fizik-mexanik qayta ishlash va turli xil iflos aralashmalardan tozalash jarayonlarini takomillashtirish, 2BT-150Sh rusumli titish-tozalash uskunasi konstruksiyasiga qo'shimcha cho'tkali baraban o'rnatish, uning konstruktiv va texnologik parametrlarini nazariy hamda tajribaviy jihatdan asoslash orqali tolaning titilganlik darajasi, iflosliklardan tozalanish samaradorligi va sifat ko'rsatkichlarini oshirish, shuningdek, mahalliy xomashyo asosida sifatli jun tolasini materiallarini olishga yo'naltirilgan resurs tejankor va iqtisodiy samarador texnologiyani ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

mahalliy dag'al jun tolasining fizik-mexanik xossalarini, tarkibiy tuzilishini hamda tarkibidagi mayda va yirik iflos aralashmalarning xususiyatlarini tadqiq etish;

2BT-150Sh rusumli titish-tozalash uskunasi ish jarayonini tahlil qilish va tolaning titilganlik darajasi hamda iflosliklardan tozalanish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan qo'shimcha cho'tkali baraban konstruksiyasini ishlab chiqish;

cho'tkali barabanning konstruktiv va texnologik parametrlarining jun tolasini harakati, titilishi va iflosliklardan ajralish jarayoniga ta'sirini nazariy jihatdan tadqiq etish, matematik model ishlab chiqish hamda maqbul ish rejimlarini ilmiy asoslash;

takomillashtirilgan cho'tkali barabanli titish-tozalash jarayonini tajribaviy tadqiq etish, tolaning titilganlik darajasi, tozalash samaradorligi va sifat ko'rsatkichlarini aniqlash hamda olingan natijalarning nazariy asoslanganligini tajriba-sinovlar orqali baholash;

mahalliy dag'al jun tolasini samarali titish va tozalash asosida keyingi yuvish jarayonida suv va kimyoviy moddalar sarfini kamaytiruvchi, sifatli titilgan jun tolasini va noto'qima materiallar olish imkonini beruvchi resurs tejankor texnologiyani ishlab chiqish hamda uning texnik-iqtisodiy samaradorligini baholash.

Tadqiqot obyekti sifatida jun tolasini tozalash uskunasini hisoblangan 2BT-150Sh rusumli uskunasini tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti jun tolasini iflos aralashmalardan tozalash uskunasi ishchi organlari va ularning harakat qonuniyatlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida matematik tahlil, matematik modellashtirish, differensial tenglamalarni analitik va sonli usullar yordamida yechish, tajribalarni rejalashtirish, ko'p omilli tajribalarni o'tkazish va natijalarini matematik-statistik qayta ishlash, taqqoslash, baholash hamda optimallashtirish usullaridan foydalanilgan. Nazariy tadqiqot natijalari tajriba-sinov ishlari orqali tekshirilgan va olingan natijalarning o'zaro muvofiqligi baholangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mahalliy dag'al jun tolasini titish va mexanik tozalash samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan, 2BT-150Sh rusumli titish-tozalash uskunasi texnologik imkoniyatlarini kengaytiruvchi yangi konstruktiv yechim ishlab chiqilgan va ilmiy asoslangan, bunda tolaning uskuna chiqish qismiga qo'shimcha cho'tkali baraban o'rnatilib, uning yordamida tolani qo'shimcha titish va tarkibidagi mayda hamda yirik iflos aralashmalarni ajratish jarayoni takomillashtirilgan;

cho'tkali baraban ta'sirida jun tolasining harakat qonuniyatlarini ifodalovchi nazariy-matematik model ishlab chiqilgan, bunda tola oqimining harakatiga ta'sir etuvchi og'irlik, markazdan qochma, ishqalanish, elastik va qarshilik kuchlarining o'zaro ta'siri hisobga olinib, ikkinchi tartibli differensial tenglama shakllantirilgan hamda uning analitik va sonli yechimlari asosida tola harakatining asosiy qonuniyatlari aniqlangan;

cho'tkali barabanning radiusi, aylanish tezligi, novning qiyalik burchagi va ishqalanish koeffitsiyentining jun tolasining harakatlanishi, titilishi va iflosliklardan ajralish jarayoniga ta'siri nazariy va matematik modellashtirish asosida aniqlangan, natijada baraban radiusi 200 mm, nov qiyalik burchagi 50°, aylanish tezligi 500–630 ayl/min va ishqalanish koeffitsiyenti 0,30–0,40 oralig'ida bo'lganda texnologik jarayonning maqbul ish rejimlari ilmiy asoslangan;

nazariy hisoblashlar, sonli modellashtirish va tajriba natijalarining o'zaro muvofiqligi asosida cho'tka og'ish burchagi 50° va cho'tkali barabanning aylanish tezligi 630 ayl/min bo'lganda mahalliy dag'al jun tarkibidagi iflos aralashmalarni ajratish samaradorligi 91,4 % gacha oshishi ilmiy jihatdan asoslangan hamda mazkur

parametrlarning tolaning samarali titilishi va tozalanishini ta'minlovchi maqbul qiymatlar ekanligi aniqlangan;

cho'tkali baraban yordamida jun tolasini kolosnikli panjara ustidan uzatish jarayonining energetik-matematik modeli ishlab chiqilgan, tozalash jarayonida bajariladigan ishning baraban aylanish tezligiga kvadratik bog'liqligi aniqlangan va ushbu qonuniyat asosida energiya sarfini hamda tolaning mexanik shikastlanishini kamaytirish bilan birga yuqori darajadagi titish va tozalashni ta'minlovchi ratsional texnologik ish parametrlari ilmiy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

2BT-150Sh rusumli titish-tozalash uskunasiga cho'tkali baraban o'rnatish orqali jun tolasini mayda va yirik iflosliklardan samarali tozalash imkoniyati yaratildi;

mahalliy dag'al jun xomashyosidan sifatli tola olishning takomillashtirilgan texnologik asoslari ishlab chiqildi;

taklif etilgan texnologiya yordamida tolaning shikastlanishi kamaytirilib, tozalash samaradorligi oshirildi;

suv va kimyoviy moddalar sarfini kamaytirishga yo'naltirilgan resurs tejamkor va iqtisodiy samarali texnologiya taklif etildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tolaning namligini, mayda va yirik aralashmalardan tozalash, uskunasining ishchi organlari harakatining amaliy sinovlari, mavjud va amaldagi nazariyaga mantiqan muvofiq kelishi, hisob ishlarida standartlarga mos kelishi, iqtisodiy samaradorlik asosida ishlab chiqarishga tavsiya etilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mahalliy dag'al jun tolasini mexanik va kimyoviy usullarda qayta ishlash jarayonlarini takomillashtirish, tozalash uskunasiga qo'shimcha cho'tkali baraban o'rnatish orqali tozalash samaradorligini oshirish, yuvish jarayonida suv va kimyoviy moddalar sarfini kamaytirish hamda yuqori sifatli titilgan tolali materiallar olish texnologiyasining ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati taklif etilgan texnologiya asosida mahalliy dag'al jun tarkibidagi iflos aralashmalarni samarali tozalash, suv va kimyoviy moddalar sarfini kamaytirish, mahalliy jun xomashyosini chuqur qayta ishlash hisobiga import o'rnini bosuvchi raqobatbardosh tola va tolali materiallar ishlab chiqarish imkoniyatining yaratilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mahalliy dag'al jun tolasini mexanik va kimyoviy usullarda qayta ishlash, tolani samarali tozalash hamda yuqori sifatli titilgan tolali materiallar ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

mahalliy dag'al junni tozalashning takomillashtirilgan texnologiyasi "XISORA MAYIN JUN" MChJ korxonasida ishlab chiqarishga joriy etilgan ("O'zcharsanoat" uyushmasining 2026-yil 25-fevraldagi HR-25-son ma'lumotnomasi). Natijada mahalliy dag'al jun tarkibidagi yirik va mayda iflos aralashmalarni samarali ajratish hamda yuqori sifatli tola olish imkoniyati yaratilgan;

tozalash uskunasiga qo'shimcha cho'tkali baraban o'rnatish asosida takomillashtirilgan konstruksiya ishlab chiqarishga joriy etilgan ("O'zcharsanoat" uyushmasining 2026-yil 25-fevraldagi HR-25-son ma'lumotnomasi). Natijada

uskunaning tozalash samaradorligi oshirilgan, tolaning titilganlik darajasi yaxshilangan hamda texnologik jarayonning samaradorligi ortgan;

mahalliy dag'al jun tolasi asosida uch xil qalinlikdagi noto'qima materiallar ishlab chiqarish texnologiyasi "JIZZAX JUN" MChJ korxonasida amaliyotga joriy etilgan ("O'zcharmsanoat" uyushmasining 2026-yil 25-fevraldagi HR-25-son ma'lumotnomasi). Ishlab chiqarish sinovlari natijalariga ko'ra, mahalliy jun tolasini tozalash samaradorligi 18–20 foizga oshgan, natijada sifat ko'rsatkichlari yaxshilanib, yuqori fizik-kimyoviy xossalarga ega titilgan tolali materiallar ishlab chiqarishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari bo'yicha jami 6 ta ilmiy-amaliy konferensiyada, shu jumladan 2 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini e'lon qilish uchun tavsiya etilgan respublika ilmiy jurnallarida 5 ta ilmiy maqola, xorijiy ilmiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola hamda xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalari materiallari to'plamlarida 6 ta tezis nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 131 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, ishning maqsadi, vazifalari va obyekti hamda predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining "Mahalliy jun tolasidan to'qimachilik sanoatida foydalanish istiqbollari" deb nomlangan birinchi bobida yengil sanoatni rivojlantirish, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari tahlil qilingan. Ushbu jarayon to'qimachilik sanoatining xomashyo bazasini kengaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va raqobatbardosh mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish uchun muhim imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, ip-kalava, gazlama, trikotaj va paypoq mahsulotlari ishlab chiqarish hamda eksport hajmlarining o'sishi sohaning barqaror rivojlanayotganini ko'rsatadi. Bobda, shuningdek, noto'qima materiallarning gigiyenik, tibbiy, maishiy va texnik sohalardagi qo'llanish imkoniyatlari tahlil qilinib, mahalliy jun xomashyosidan sifatli tola va noto'qima materiallar ishlab chiqarishning istiqbolli yo'nalishlari asoslangan.

Dissertatsiyaning "Jun tolasini iflosliklardan tozalash uskunasi takomillashtirish tajriba-sinov usullari" deb nomlangan ikkinchi bobida jun

tolasini dastlabki qayta ishlash, uni iflosliklardan tozalash va keyingi texnologik jarayonlarga tayyorlash bosqichlari tahlil qilingan. Junni qayta ishlash jarayonining samaradorligi, avvalo, tola tarkibidagi mineral, o'simlik va boshqa iflosliklarni samarali ajratish hamda tolaning tabiiy xususiyatlarini saqlab qolishga bog'liqligi asoslangan.


Takomillashtirilgan uskunada tola chiqish novi qoziqchali barabanlar markaziga nisbatan balandroq va 50° qiyalik burchagida o'rnatilgan. Titib-tozalangan tola markazdan qochma kuch ta'sirida nov orqali cho'tkali barabanga yo'naltiriladi, og'ir iflosliklar esa to'rli panjara tirqishlari orqali alohida ifloslik noviga ajratiladi. Mineral aralashmalarni ushlab qolish uchun novning asos qismiga magnit, tolaning tiqilib qolishining oldini olish uchun yuqori qismiga ochilib-yopiladigan qopqoq o'rnatilgan. Tolaning qayta ifloslanishini kamaytirish va qo'l mehnatini qisqartirish maqsadida diametri 400 mm bo'lgan, to'rtta planka va almashtiriladigan cho'tkalardan tashkil topgan cho'tkali baraban o'rnatilgan. Baraban ostiga ajralgan iflosliklarni ushlab qoluvchi kolosnikli panjara joylashtirilgan. Cho'tkali baraban 4 ta planka va planka uchida almashtiriladigan cho'tkalardan tashkil topgan, tag qismiga iflosliklarni olib qoluvchi kolosnikli panjara o'rnatilgan. Cho'tkali barabanning avzalliklari quyidagilardan iborat:

- tola chiqish novi takomillashtirilgan, ajralgan iflosliklar o'tib ketishi oldi olingan;

- mineral aralashmalarni tutib qolishi uchun magnit, yuqori qismiga tiqilinchni bartaraf qilish maqsadida qopqoq o'rnatilgan;

- yangi o'rnatilgan cho'tkali baraban plankalari va markazdan qochma kuch ta'sirida tolani keyingi yuvish vannasiga tashlab beradi, natijada inson qo'l mehnati, vaqt sarfi tejaladi;

- cho'tkali baraban tolani kolosnikli panjara ustida sudrab o'tishi natijasida tola chigalligi to'g'irlanadi, begona o'simlik aralashmalardan tozalanadi va ajralgan ifloslik panjara tirqishidan novga tushadi;




1-rasm. Cho'tkali baraban ko'rinishi 1-cho'tka; 2-planka; 3-val.

Taklif etilayotgan uskuna quyidagicha ishlaydi; titib-tozalash uskunasi 500-720 /min. tezlikda aylanuvchi qoziqchali barabanlari 1 da titib tozalangan tola nov 2 orqali cho'tkali baraban 5 ga tashlanadi. Novni asos qismiga tola tarkibidagi mineral aralashmalarni (metall bo'lakchalar) ushlab qoluvchi magnit 3 va ustki qismiga tola tiqilishini oldini olish maqsadida ochilib yopiladigan qopqoq

4 o'rnatilgan. 50 gradus qiyalikda joylashgan novdan titilgan tola og'irligi va markazdan qochma kuch ta'sirida cho'tkali barabanga tushadi.

Tezligi 500-630 m/min bo'lgan cho'tkali baraban jun tolasini kolosnikli panjara 6 ustidan sudrab o'tishi natijasida chigallashgan tola tutamidan taram hosil qiladi va jun tarkibidagi qolib ketgan iflosliklarni ajratadi.

Tola chiqish noviga o'rnatilgan cho'tkali baraban uskunaning ish unumdorligi va tozalash samaradorligini oshirdi.



2-rasm. Cho'tkali baraban ta'siridagi tolalar oqimining harakat sxemasi

$S = AB$ -yoy oralig'idagi cho'tka va to'rtli sirtidagi tolalar oqimining urinma bo'yicha harakat differensial tenglamasini tuzamiz.

$$m \cdot R \cdot \ddot{\theta} = m \cdot g \cdot \sin \theta - F_{uu} + (F_t + m \cdot \omega^2 \cdot l) \cdot \cos \beta - F_{xk} \quad (1)$$

Bu yerda tolalar oqimining cho'tka baraban ta'sir qiluvchi tashqi kuchlar mg - tolalarni og'irlik kuchi, $F_{m,q}$ - markazdan qochma kuch, F_t - ta'sir kuchi (cho'tkaning tolalarga) F_{ishq} - ishqalanish kuchi, F_{xq} - qarshilik kuchi, $F_{m,q} = m \cdot \omega^2 \cdot l$; $F_{xk} = k \cdot R \cdot \dot{\theta}$; $F_{ishq} = f \cdot N$ bu kuchlarning (1) differensial tenglamaga qo'yib hisoblaymiz.

$$\begin{aligned} m \cdot R \cdot \ddot{\theta} &= m \cdot g \cdot \sin \theta - f \cdot N + (F_t + m \cdot \omega^2 \cdot l) \cdot \cos \beta - k \cdot R \cdot \dot{\theta} \\ m \cdot R \cdot \ddot{\theta} + k \cdot R \cdot \dot{\theta} - m \cdot g \cdot \sin \theta &= -f \cdot N + (F_t + m \cdot \omega^2 \cdot l) \cdot \cos \beta \end{aligned} \quad (2)$$

(2) ikkinchi tartibli bir jinsli bo'lmagan differensial tenglamani sodda ko'rinishga keltiramiz

$$\ddot{\theta} + \frac{k}{m} \cdot \dot{\theta} - \frac{g}{R} \cdot \sin \theta = \frac{1}{m \cdot R} \cdot [(F_t + m \cdot \omega^2 \cdot l) \cdot \cos \beta - f \cdot N] \quad (3)$$

(3) differensial tenglamaga quyidagi belgilashlar kiritamiz $p = \frac{k}{m}$;

$$\begin{aligned} Q &= -\frac{g}{R}; \quad G(t) = \frac{1}{m \cdot R} \cdot [(F_t + m \cdot \omega^2 \cdot l) \cdot \cos \beta - f \cdot N] \\ \ddot{\theta} + p \cdot \dot{\theta} + Q \cdot \theta &= G(t) \end{aligned} \quad (4)$$

(4) differensial tenglamani bir jinsli qismini hisoblaymiz

$$\ddot{\theta} + p \cdot \dot{\theta} + Q \cdot \theta = 0 \quad (5)$$

(5) bir jinsli differensial tenglamani xarakteristik tenglamasini tuzamiz $\theta = e^{\lambda \cdot t}$ $\ddot{\theta} = \lambda \cdot e^{\lambda \cdot t}$ $\dot{\theta} = \lambda^2 \cdot e^{\lambda \cdot t}$ bu qiymatlarni (5) differensial tenglamaga qo'yib hisoblaymiz

$$\lambda^2 + p \cdot \lambda + Q = 0 \quad (6)$$

(6) tenglamani yechimini quyidagicha aniqlaymiz

$$\lambda_{1/2} = \frac{-\frac{k}{m} \pm \sqrt{\left(\frac{k}{m}\right)^2 + 4 \cdot \frac{g}{R}}}{2}$$

Bir jinsli qismining umumiy yechimi qo'yidagicha aniqlanadi

$$\theta_1(t) = C_1 e^{\lambda_1 \cdot t} + C_2 e^{\lambda_3 \cdot t} \quad (7)$$

(4) differensial tenglamani xususiy yechimini aniqlaymiz $\theta_2(t) = A$ doimiy ta'sir deb izlaymiz $\theta_2(t) = 0$; $\dot{\theta}_2(t) = 0$ bu qiymatlarni (3) differensial tenglamaga qo'yib xususiy yechimini aniqlaymiz

$$-\frac{g}{R} \cdot A = \frac{1}{m \cdot R} \cdot [(F_t + m \cdot \omega^2 \cdot l) \cdot \cos \beta - f \cdot N]$$

$$A = -\frac{1}{m \cdot g} \cdot [(F_t + m \cdot \omega^2 \cdot l) \cdot \cos \beta - f \cdot N]$$

$\theta_2(t) = A$ ekanligidan

$$\theta_2(t) = -\frac{1}{m \cdot g} \cdot [(F_t + m \cdot \omega^2 \cdot l) \cdot \cos \beta - f \cdot N] \quad (8)$$

Cho'tkali baraban va to'rtli sirtidagi tolalar oqimining urinma bo'yicha harakat umumiy yechimi bir jinsli va xususiy yechimlarini yig'indisidan iborat bo'ladi.

$$\theta = \theta_1(t) + \theta_2(t) = C_1 e^{\lambda_1 \cdot t} + C_2 e^{\lambda_3 \cdot t} - \frac{1}{m \cdot g} \cdot [(F_t + m \cdot \omega^2 \cdot l) \cdot \cos \beta - f \cdot N] \quad (9)$$

(9) tenglikdagi C_1 va C_2 integrall doimiylarini boshlang'ich shartlardan foydalanib aniqlaymiz $t = 0$; $\theta = 0$ $\dot{\theta} = 0$

$$\theta = C_1 + C_2 - \frac{1}{m \cdot g} \cdot [(F_t + m \cdot \omega^2 \cdot l) \cdot \cos \beta - f \cdot N]$$

$$\dot{\theta} = \lambda_1 \cdot C_1 + \lambda_2 \cdot C_2$$

$$C_1 + C_2 = \frac{1}{m \cdot g} \cdot [(F_t + m \cdot \omega^2 \cdot l) \cdot \cos \beta - f \cdot N]$$


$$\Rightarrow \lambda_1 \cdot C_1 + \lambda_2 \cdot C_2 = 0 \quad \Rightarrow$$

$$C_1 = -\frac{\lambda_2}{m \cdot g(\lambda_1 - \lambda_2)} \cdot [(F_t + m \cdot \omega^2 \cdot l) \cdot \cos \beta - f \cdot N];$$


$$C_2 = -\frac{\lambda_1}{m \cdot g(\lambda_2 - \lambda_1)} \cdot [(F_t + m \cdot \omega^2 \cdot l) \cdot \cos \beta - f \cdot N]$$

Aniqlangan integral doimiylarini (9) tenglikka qo'yib hisoblaymiz

$$\theta(t) = -\frac{\lambda_2}{m \cdot g(\lambda_1 - \lambda_2)} \cdot [(F_t + m \cdot \omega^2 \cdot l) \cdot \cos \beta - f \cdot N] \cdot e^{\lambda_1 \cdot t} - \frac{\lambda_1}{m \cdot g(\lambda_2 - \lambda_1)} \cdot [(F_t + m \cdot \omega^2 \cdot l) \cdot \cos \beta - f \cdot N] \cdot e^{\lambda_3 \cdot t} - \frac{1}{m \cdot g} \cdot [(F_t + m \cdot \omega^2 \cdot l) \cdot \cos \beta - f \cdot N] \quad (10)$$



3-rasm. Choʻtkali baraban taʼsiridagi jun tolalarini chigallashgan tola tutamidan taram hosil qilishda choʻtkalarning ogʻish burchagini turli xil $\beta_1 = 40^\circ$ $\beta_2 = 45^\circ$ $\beta_3 = 50^\circ$ qiymatlarida vaqtga bogʻliqlik grafigi.



4-rasm. Choʻtkali baraban taʼsiridagi jun tolalarini chigallashgan tola tutamidan taram hosil qilishda barabanning turli burchak tezliklarida vaqtga bogʻliqlik grafigi

(10) tenglamadan foydalanib, chigallashgan jun tolalari tutamidan taram hosil boʻlishida tolaning qamrash burchagi boʻyicha harakatlanish qonuniyatlari choʻtkali barabanning choʻtka ogʻish burchagi va burchak tezligining turli qiymatlarida Maple dasturi yordamida matematik modellashtirilib, grafik tahlil qilingan.


Mazkur tadqiqotda titish-tozalash uskunasi oʻrnatilgan choʻtkali baraban taʼsirida jun tolasining harakatlanish jarayonining nazariy asoslari ishlab chiqilgan. Tola harakatiga taʼsir etuvchi markazdan qochma, ogʻirlik, ishqalanish va elastik kuchlar hisobga olinib, jarayonning differensial tenglamasi tuzilgan hamda uning analitik va sonli yechimlari olingan. Hisoblash natijalari grafik bogʻlanishlar asosida

tahlil qilinib, cho'tkali barabanning ish rejimlarini maqbullashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Jun tolasini dastlabki qayta ishlashda tozalash jarayoni uning keyingi texnologik jarayonlardagi sifat ko'rsatkichlarini belgilovchi muhim bosqich hisoblanadi. An'anaviy titish-tozalash uskunalarida tola chiqish novi past joylashtirilganligi sababli tolaning keyingi yuvish jarayoniga qo'l mehnati yordamida uzatilishi mehnat sarfining ortishiga olib kelgan.

Takomillashtirilgan uskunada qiya o'rnatilgan tola chiqish noviga diametri 400 mm bo'lgan cho'tkali baraban o'rnatilib, uning aylanish tezligi 500–720 ayl/min oralig'ida tadqiq etilgan. Baraban plankalaridagi cho'tkalar yordamida tola kolosnikli panjara ustidan harakatlantirilib, uning chigallashgan tutamlari yoziladi va qolgan iflosliklar ajratiladi.

Shu bilan birga, cho'tkali barabanning aylanish tezligi, radiusi, ishqalanish koeffitsiyenti va cho'tka og'ish burchagining tola harakatiga ta'sirini matematik jihatdan asoslash zarurati mavjud. Shu sababli tadqiqotda mazkur parametrlarning o'zaro bog'liqligi nazariy va sonli modellashirish asosida aniqlanib, tolaning samarali titilishi va iflosliklardan tozalanishini ta'minlovchi maqbul ish rejimlari asoslangan.



5-rasm. Cho'tkali baraban ta'siridagi tolalar oqimining tashqi kuchlar ta'siridagi harakat sxemasi

Tola harakatiga ta'sir etuvchi kuchlar cho'tkali baraban aylanishi vaqtida tola puchagiga quyidagi kuchlar ta'sir etadi:

a) Markazdan qochma kuch

$$F_{m,q} = m \cdot \omega^2 \cdot l \quad (11)$$

bu yerda: m-tola puchagining massasi (kg); R-baraban radiusi (m); ω - aylanish burchak tezligi (rad/min).

b) Og'irlik kuchining to'rtli yuza bo'ylab proyeksiyasi

$$F_g = m \cdot g \cdot \sin \theta \quad (12)$$

bu yerda: $g = 9,81 \text{ m/s}^2$ -erkin tushish tezlanishi; $\beta = 50^\circ$ -cho'tkaning qiyalik burchagi.

v) Normal reaksiya kuch

$$N = F_{MK} \cdot \cos \theta + m \cdot g \cdot \cos \theta \quad (13)$$

g) Ishqalanish kuch

$$F_{uu} = \mu \cdot N = \mu \cdot (F_{MK} \cdot \cos \theta + m \cdot g \cdot \cos \theta) \quad (14)$$

bu yerda: μ - jun-cho'tka ishqalanish koeffitsiyenti (0.25-0.45).

d) Elastik kuch

$$F_{\text{el}} = k \cdot x(t) \quad (15)$$

bu yerda: k - tola puchagining ko'ndalang qattqlik koeffitsiyenti (N/m); x - tolaning hisobiy nuqtadan siljishi (m).

Ikkinchi tartibli Nyuton qonuni asosida tola puchagining to'rtli yuza bo'ylab harakati uchun asosiy differensial tenglamasini tuzamiz:

$$m \cdot \ddot{x} + c \cdot \dot{x} + k \cdot x = F(t) \quad (16)$$

Bu yerda c - so'nish koeffitsiyenti ($N \cdot s/m$); $F(t)$ - teskari chiquvchi kuch (N):

$$F(t) = F_{MK} \cdot \cos(\omega \cdot t - \theta) + m \cdot g \cdot \sin \theta \quad (17)$$

(16) tenglama majburiy tebranishli so'nuvchi tenglamasi bo'lib, uning umumiy yechimi xususiy va majburiy yechimlar yig'indisidan iborat.

Umumiy analitik yechim

Xarakteristik tenglama:

$$m \cdot \lambda^2 + c \cdot \lambda + k = 0 \quad (18)$$

(18) differensial tenglamani yechimini quyiagicha aniqlaymiz:

$$\lambda_{1/2} = -\delta \pm \sqrt{\delta^2 - \omega_0^2} \quad (19)$$

bu yerda: $\delta = \frac{c}{2 \cdot m}$ - so'nish koeffitsiyenti; $\omega_0 = \sqrt{\frac{k}{m}}$ - tebranish chastota.

so'nish ($\delta < \omega_0$) holatida: (18) bir jinsli differensial tenglamani yechimi qo'yidagicha aniqlanadi

$$x_1(t) = e^{-\delta \cdot t} [C_1 \cdot \cos(\omega_1 \cdot t) + C_2 \cdot \sin(\omega_1 \cdot t)] \quad (20)$$

bu yerda $\omega_1 = \sqrt{\delta^2 - \omega_0^2}$ - so'nuvchi tebranish chastotasi.

(18) differensial tenglamani xususiy yechimi qo'yidagicha aniqlanadi

$$x_2(t) = A \cdot \cos(\omega \cdot t - \theta - \varphi) \quad (21)$$

Umumiy yechim bir jinsli va xususiy yechimlari yig'indisidan iborat:

$$x = x_1(t) + x_2(t) = e^{-\delta \cdot t} [C_1 \cdot \cos(\omega_1 \cdot t) + C_2 \cdot \sin(\omega_1 \cdot t)] + A \cdot \cos(\omega \cdot t - \theta - \varphi) \quad (22)$$

Tozalash samaradorligining energetik o'lchovi bo'yicha tahlili. Tola panjara ustidan $L=0,30 \text{ m}$ masofaga sudrab o'tilishida ishqalanish kuchi bajaradigan ish:

$$W = F_{uu} \cdot L = \mu \cdot N \cdot L = \mu \cdot (F_{MK} \cdot \cos \theta + m \cdot g \cdot \cos \theta) \cdot L \quad (23)$$

(23) tenglikdan cho'tkali baraban burchak tezligiga bog'liqlik ifodasini aniqlaymiz:

$$W = \mu \cdot (m \cdot R \cdot (\frac{\pi \cdot n}{30})^2 \cdot \cos\theta + m \cdot g \cdot \cos\theta) \cdot L \quad (24)$$

(24) tenglama cho'tkali baraban aylanish tezligi n oshishi bilan tozalash ishining kvadratik o'sishini tavsiflaydi. Biroq ortiqcha tezlikda tola zararlanishi mumkin, shu sababli optimal diapazon 500–630 ayl/min deb belgilanadi.

Dissertasiyaning “Titish tozalash uskunasini takomillashtirish texnologiyasi” deb nomlangan uchinchi bobida tajribani ko'p omilli yoki rejalashtirish dib ta'sir etuvchi barcha omillar sathlarini bir vaqtda o'zgartiriladigan rejalashtirishga aytiladi.

Bunday rejalashtirish usuli sonli tajribalar o'tkazish bilan yuqori aniqlikdagi natijalar olish imkonini beradi. Omilli rejalashtirish asosida o'tkazilgan tajriba natijasida olingan matematik modeldagi xar bir regressiya koeffitsiyenti barcha N tajriba natijasida aniqlanadi, shuning uchun dispersiya N marta tajribalar xatoligi dispersiyadan kichikdir.

Agar jarayonning regression matematik modeli quyidagi chiziqli tenglama ko'rinishida bo'lsa:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 x_1 + \beta_2 x_2 \dots \dots \dots + \beta_n x_n$$

U holda uni regressia koeffitsiyentlarini topish uchun $N=n+1$ ta tajriba o'tkazish kifoya qiladi va regressiya koeffitsiyentlarini dispersiyasi omillar soni oshishi bilan kamayib boradi.

1-jadval

Chiquvchi parametr sifatida esa tolalarni titilish samaradorligi

Omillar		O'lchov birligi	O'zgarish sathlari			O'zgarish oralig'i
nomi	kodlar		-1	0	1	
Cho'tkaning og'ish burchagi		oC	400	450	500	50
Cho'tkali barabanning burchak tezligi		ayl/min	520	620	720	100
Cho'tkali barabanning radiusi		sm	10	15	20	5

Tajribalar o'tkazilishining omilli rejalashtirish usulida, ular randomizatsiyalangan tartibli, ya'ni tasodifiy ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Bundan asosiy maqsad boshqarilmaydigan omillarni (turli sifatli xom-ashyo, vaqt o'zgarishi) chiquvchi parametrlarga ta'sirini yo'q qilish, ya'ni ular ta'sirini tasodifiy xolatga keltirishdan iborat.

Kiruvchi omil sifatida cho'tkaning og'ish burchagi, cho'tkali barabanning burchak tezligi, cho'tkaning radiusi olindi. Chiquvchi parametr sifatida esa tolalarni titilish samaradorligi qabul qilindi. Shuningdek rejalashtirish matritsasi asosida xar

bir sharoitda 3 marotaba takroran tajribalar o'tkazildi va natijalar 1-jadvalda ko'rsatilgan.

Eksperiment natijalariga ishlov berish qoidasiga binoan dastlab tajriba takroriyligi aniqlandi. Buning uchun Koxren mezonining hisobiy kattaligi topilib, jadvaliy qiymati bilan qiyoslandi. Tolalarni titilish samaradorligi Koxren me'zoni quyidagicha aniqlanadi.

$$G_H \frac{S_u^2\{y\} \max}{\sum_{u=1}^N S_u^2\{y\}} = \frac{0.003}{0.062} = 0.559$$

Koxren mezonining jadvaliy qiymati quyidagicha aniqlandi.

$$G_{jad} = \{P_H = 0.95; f = m - 1 = 3 - 1 = 2; N = 9\} = 0.6385$$

Agar $G_H < G_{jad}$ bo'lsa, (S_{2u}) dispersiyalar bir jinsli deyiladi va ishni davom ettirish mumkin. Ma'lumki, javob funksiyasining analitik ifodasi noma'lum bo'lganda, odatda javob funksiyasining ko'pxad bilan regressiya tenglamasi ko'rinishida ifodalash mumkin. Model ikkinchi tartibli ko'phad shakliga ega:

$$y = b_0 + \sum_{i=1}^N b_i x_i + \sum_{ij=1}^N b_{ij} x_i x_j + \sum_{i=1}^N b_{ii} x_i^2 \quad (25)$$

Bu yerda: y - optimallashtirish parametrini hisoblangan qiymati, x_i - mustaqil kiruvchi parametrlar, ular tajribani o'tkazishda o'zgarib turadi, b_0, b_i, b_{ij} - tajriba natijalaridan aniqlanadigan regressiya koeffitsiyentlari. Tenglama ko'rinishidagi matematik modelni qurish uchun "y" optimallashtirish mezonini tanlanadi; mustaqil o'zgaruvchan x_i - faktori tanlanadi; b_0, b_i, b_{ij} regressiya koeffitsiyentlari hisoblanadi, javob va reja funksiyasining ko'rinishi aniqlanadi.

bu yerda, b_0, b_i, b_{ij} - model koeffitsiyentlari;

N - tajribalar soni;

x_i, x_j - omillar.

Tajriba rejasini yozish va tajriba natijalarini qayta ishlash uchun kichik X_1, X_2 xarflarda belgilanadigan faktorlarning kodlangan qiymatlaridan foydalaniladi. X_i kodlangan (o'lchamsiz kattalik) va X_i fizik (tabiiy) o'zgaruvchan quyidagi nisbatda o'zaro bog'langan.

Optimallashtirish parametri dispersiyasi S_y^2 , model koeffitsiyentlari dispersiyasi S_{ag}^2 quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$S_y^2 = q_5 \cdot \sum_{i=1}^{n_0} (\bar{y}_i - y_i)^2 \quad (26)$$

n_0 - nol nuqtadagi tajribalar miqdori

$$S_{bi}^2 = q_6 \cdot S_y^2 \quad (27)$$

$$S_{ag}^2 = \sum_{i=1}^N (\bar{y}_h - y_t)^2 / N - \lambda \quad (28)$$

bu yerda, N - tajribalar soni, λ - modelning muhim koeffitsiyentlari soni.

Koeffitsiyentlarning doimiy qiymatlari q_i (27-28) formulalar uchun 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

N	q_1	q_2	q_3	q_4	q_5	q_6	N
2	0,1111	0,1666	0,25	0,1666	0,1111	0,0555	9

Keltirilgan 27-28 formulalar bo'yicha 3-jadvaldagi berilgan qiymatlardan foydalanib, optimallashtirish parametrlari tolalarni titilish samaradorligi regressiya tenglamasi koeffitsiyentlari quyidagicha hisoblandi.

Ahamiyatsiz koeffitsiyentlar tashlab yuborilgandan so'ng regressiya tenglama quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi:

$$y_1 = 0.53 + 0.0472x_1 + 0.153x_2 + 0.0178x_3 - 0.0233x_1x_2 - 0.139x_1x_3 - 0.055x_2x_3 - 0.020x_2^2 \quad (29)$$

(29) tenglamalarni adekvatligini (moslik) baholash uchun

F– Fisher me'zoni yordamida aniqlanadi, ya'ni

$$F = s_{agi}^2 / s_{yi}^2,$$

bu yerda s_{agi}^2 - adekvatlik dispersiyasi (30) formula bo'yicha hisoblanadi.

Adekvatlik dispersiyasi hisoblangan qiymatlarning aniq qiymatlardan og'ish o'lchovidir. Agar $F_{his} < F_{jad}$ bo'lsa, model adekvat hisoblanadi.

